

## BUXORO SHAHRI GUZARLARI SHAKLLANISHIDA DINIY INSHOOTLARNING TOPOGRAFIK O'RNI

Nafisa JO'RAYEVA\*

**Abstrakt:** Mazkur maqolada Buxoro o'rta asr shaharlariiga xos shahriston, ark va raboddan iborat tarkibda shakllanib borganligi, guzarlarning tashkil topishi, muqaddas qadamjolarning tarixiy topografiyasi kabi masalalar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, muqaddas qadamjolarning guzarlar tashkil topishida ishtiroki, ularga nisbatan joylashuvi va natijada Buxoro shahri tarixiy topografiyasining muhim bo'g'iniga aylanib borish jarayoni tahlil qilingan.

Buxoroning muqaddas qadamjolari o'rta asr shaharsozligining ajralmas qismi sifatida nafaqat noyob me'moriy obida, balki shahar arxitekturasi, qurilish an'analarini, urbanizatsiya jarayonlari, ijtimoiy hayot va aholining ma'naviy-diniy qiyofasi, shuningdek, shahar tarixiy topografiyasi haqidagi muhim ma'lumotlarni o'zida ifodalashi bilan ham qimmatli manbadir.

Mozorlar dastlab mashhur shaxs, mutasavvif, ilohiyotchi olimlarning qabrlaridan iborat bo'lib, keyinchalik ularning atrofi yangi qabrlar hisobiga kengayib boravergan. Bunday jarayonni diniy e'tiqodning jamiyat ma'naviy-maishiy hayotiga chuqur kirib borishi bilan izohlash mumkin. Oddiy xalq marhumming avliyolar yonida dafn qilinishini narigi dunyo azoblariga kafolat deb tushungan. Bunday qabristonlarni shahar ichkarisida ham, tashqarisida ham uchratish mumkin. Qabristonlar atrofi bo'ylab bosqichma-bosqich aholi yashash manzillari vujudga kela boshlagan. Ijtimoiy hayot davom etib, aholi gavjumlashib yangi-yangi guzarlar, mahalla va mavzelar shakllanib borgan. Demak, muqaddas qadamjolar shahar topografiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanib, uning hududi kengayishiga o'z ta'sini o'tkazgan.

**Kalit So'zlar:** Topografik Plan, Me'moriy Obida, Shaharsozlik, Shahar Tarixiy Topografiyasi, Tarixiy Manba, Sharqi Darvoza, Ziyoratgoh, Imorat, Kvartal, Inshoot.

### The Topographic Place of Religious Buildings on the Formation of Guzars in Bukhara City

**Annotation:** In this article, the development of Bukhara in terms of city composition, arch and rabad structures typical of medieval cities, the formation of guzars, and the historical topography of holy places are studied. Furthermore, the article delves into analyzing the role of sacred sites in shaping guzars, their specific locations in relation to these sites, and their evolution into vital components of Bukhara's historical topography.

The holy places of Bukhara, as an integral part of medieval urban planning, are not only a unique architectural landmark but also a valuable resource in their expression of important information about urban architecture, building traditions, urbanization processes, social life, and the spiritual and religious image of the population, as well as the historical topography of the city.

The above-mentioned cemeteries initially consisted of the graves of famous people, mystics, and theologians, and later their surroundings were expanded with new graves. Such a process can be explained by the deep integration of religious faith into the spiritual and domestic life of society. Ordinary people believed that burying the deceased near the saints would ensure their well-being in the afterlife. These cemeteries can be located both within and outside the city. Gradually, residential areas began to develop around the cemeteries. As social life continued, the population became denser and new bazaars, neighborhoods, and districts were formed. Therefore, the holy places became an important component of the city's topography and had an impact on the expansion of its territory.

**Key Words:** Topographic Plan, Architectural Monument, Urban Development, Historical Topography Of The City, Historical Source, Eastern Gate, Shrine, Building, Quarter, Structure.

### Kirish

Jahon mamlakatlarida XX asr oxiri-XXI asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlar ilm-fan taraqqiyotida yuksak istiqbollarni ochib bermoqda. Jahonda, ayniqsa, Sharq dunyosi madaniy hayotida muhim o'rin egallagan muqaddas qadamjolar tarixi, topografiyasi, yangi guzarlar shakllanishida muqaddas qadamjolarning roli hamda ularda amalga oshirilgan hududiy o'zgarishlar va ularni aniqlash dolzARB masalalardan bo'lib qolmoqda. Bu borada ziyoratgohlarning topografik joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, ularning o'rnini aniqlash, ushbu madaniy meros ob'yektlarini asrab-avaylash, keljak avlodga etkazish alohida ahamiyat kasb etadi.

\* Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), jurayevanafisa0@gmail.com.

## 1. Tadqiqotning Bibliografiyasi

Mazkur mavzuga doir tadqiqotlarni to‘rt guruhga ajratish mumkin:

- 1.XVIII – XIX asr boshlaridagi tadqiqotlar, shaharning topografik planları va XX asr boshlaridagi ishlar;
- 2.Sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar;
- 3.Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar;
- 4.Xorijiy nashrlar.

XVIII–XIX asr boshlarida N.Xanikov, A.Berns, L.Kostenko, A.Vamberi, I.Poslavskiy, P.Shubinskiy, A.Semenovlarning tadqiqotlarida Buxoro shahri muqaddas qadamjolari tarixiga oid ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

Ikkinci guruh, ya’ni sovet davrida sharqshunos olimlar jumladan, I.I.Umnyakov, M.Saidjonov, V.A.Shishkin, O.A.Suxareva, V.V.Bartold, A.R.Muhammadjonov, L.I.Rempel, G.A.Djurayeva, Y.G.Nekrasova lar tomonidan Buxoro shahri topografiyasi bo‘yicha maxsus tarixiy, topografik monografiyalar yaratilgan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda tarixchi olimlardan R.L.Gafurova, H.H.To‘rayev, R.V.Almeyev, E.V.Rtveladze, Y.G.Nekrasova, Sadreddin Salim Buxoriy, N.Yo‘ldoshevlar milliy, diniy qadriyatlarga yangicha nuqtai nazardan yondashib, muqaddas qadamjolar tarixini xolisona yoritishgan. Bu tadqiqotlarda Buxoro shahrining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy jarayonlarini tahlil qilish bilan bir qatorda, muqaddas qadamjolar topografiyasi va arxitekturasi, uning tashqi qiyofasidagi o‘zgarishlar, ayniqsa, mustaqillikdan keyin bu maskanlarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari yoritib berilgan.

## 2. Muhokama va Natijalar

Buxoro shahri tarixiy topografiyasini ilmiy o‘rganish, tadqiq qilish masalasi hamma davrda dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Tadqiqotchilar tomonidan o‘rta asr raboti va shahriston hududi, arablar fathigacha shahar maydoni (hududi o‘lchami) masalasi, guzarlarning shakllanishi, toq va savdo majmualari kabi tarixiy binolarning topografiyasi, shahar devori va darvozalarning o‘rni kabi ilmiy muammolarni tahlil etish jarayonida muqaddas qadamjolar tarixiga oid ayrim ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, guzarlar shakllanishi, ular sonining ortib borishi va shahar kengayishida muqaddas qadamjolarning roli masalasi tadqiq qilinmagan mavzulardan hisoblanadi.

Buxoroning muqaddas qadamjolari o‘rta asr shaharsozligining ajralmas qismi sifatida nafaqat noyob me’moriy obida, balki shahar arxitekturasi, qurilish an’analari, urbanizatsiya jarayonlari, ijtimoiy hayot va aholining ma’naviy-diniy qiyofasi, shuningdek, shahar tarixiy topografiyasi haqidagi muhim ma’lumotlarni o‘zida ifodalashi bilan ham qimmatli manbadir.

Ma’lumki, Buxoro hukmdorlari qarorgohi Arkning ikki darvozasi bo‘lib, uning g‘arbiy darvozasi “Registon”, sharqiy darvozasi esa “Go‘riyon” (“Qabriston darvoza”) deb atalgan. Ark qo‘rg‘onining vujudga kelishini Siyovush, ba’zi mualliflar Afrosiyob nomi bilan bog‘laydilar (11,-C.12), uning sharqiy darvozasi ortida Siyovush qabri bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Bu darvozadan janubiy-sharqiy tomonda shahriston joylashgan. Kelgusida shaharning shu qismi kengayib, aholi gavjumlashuvida Siyovush kultining ham ta’siri bo‘lgan. Chunki Siyovush qabri joylashgan sharqiy darvoza bir tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tomonidan, qadamjo sifatida aholining ma’naviy e’tiborida bo‘lgan. Bunday holat Buxoro shahristonining shakllanishiga, yoxud uning muntazam kengayib borishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Keyinchalik, arablar davrida Buxoro shahri 18 metrlik qalin devor bilan o‘rab olingen. Qal‘aning sharqiy tarafidagi shahriston (13 hektar)ga asos solinishi turk hukmdori Sheri Kishvar nomi bilan bog‘liq (19,-C.10). Shahristondan janubda savdo va hunarmandchilik rastalari vujudga kelib, Buxoro o‘rta asr shaharlariga xos shahriston, ark va

raboddan iborat tarkibda shakllanib borgan.

Tarixiy adabiyotlarda 1405-yilda temuriylar sulolasidan olim sifatida shuhrat qozongan Mirzo Ulug‘bek (1394 –1449yy.) va uning jiyani Abdulla ibn Ibrohim Sultonlar Buxoroda qisqa muddat bo‘lib, shu davrda Arkda mudofaa va qurilish bo‘yicha ishlarni amalga oshirganligi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, ushbu tashrif vaqtida Ark qal’asining ikkita darvozasi bo‘lganligi ta’kidlaniladi (3,-C.77). Aftidan, Arkning sharqiy darvozasi shundan so‘ng yopib qo‘yilgan. Negaki, temuriylardan keyingi davrlarda yaratilgan biron bir tarixiy manbada Arkning sharqiy darvozasi haqida so‘z yuritilmaydi.

Tabiiyki, sharqiy darvoza tomonga o‘rnashib olgan Ulug‘bek Mirzo Siyovush qabriga-afsonaviy shahar asoschisiga hurmat bajo keltirgan bo‘lishi, ehtimol. Chunki bu uning kelgusi faoliyatida Buxoroga alohida e’zozdagi shahar sifatida qaraganligida ko‘rinadi. Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bekning 1417-yilda Buxoro shahrida, 1433-yilda Abduxoliq G‘ijduvoniy yurtida madrasa qurdirganligi fikrimizni to‘liq asoslaydi.

Shayboniylar sulolasining vakili AbdulloxonII davrida Buxoro poytaxt shahar sifatida har tomonlama gullab yashnadi. U bu yerda qator me’moriy obida va ijtimoiy ahamiyatga molik imoratlar qurgan. Tarixnavislik taraqqiy qilgan bu davrda biror tarixiy manbada sharqiy darvoza (Darvozai Gurijon) to‘g‘risida ma’lumot qayd qilinmagan.

Shayboniy hukmdorning Ark qo‘rg‘oniga yaqin hududda madrasalar buniyod qilganligini inobatga olsak, bu davrda Ark g‘arbiy darvozasining siyosi, ma’naviy ahamiyati oshgan ko‘rinadi. Demak, Abdulloxon II davrida g‘arbiy darvoza ta’mirlangan, ammo sharqiy darvoza haqida manbalarda ma’lumotlar keltirilmagan. Shu sababli, mazkur darvoza shayboniy Abdulloxon II davrigacha yopilgan bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, sharqiy darvoza yopilgach, uning orqasida Arki basta (yopiq Ark) deb atalgan guzar shakllangan. Mazkur guzar nomi XVIII asrdagi manbalarda uchraydi (17,-C.8). Demak, Ark hududi kengaytirilib, sharqiy darvoza olib tashlangach, Buxoro hukmdorlari Siyovush xotirasiga hurmat bajo keltirib, qabrini o‘z o‘rnida qoldirishgan, faqatgina uni sharqiy darvoza yopilgach g‘arbiy darvoza tomonga ko‘chirishgan.

Manbashunos olim Muso Saidjonov Ark darvozasidan ichkariga kirishda chap tomondag'i bosiqchadan chiqqandan keyin so‘lda kichik bir sufada (sufaning ostida bosiqchadan o‘tgach 4 ravoda) Siyovushning qabri mavjudligini ta’kidlaydi (12,-C.17). Demak, hukmdorlar XX asr boshlarida ham afsonaviy shahar asoschisiga e’tiqod qilib, sham’ yoqishib, Siyovushning ruhiga bag‘ishlab duoi fotiha qilishgan (12,-C.18-19).

Professor R.R.Raximov ham afsonaviy qahramon Siyovush mozorida yaqin-yaqingacha sham yonib turganligini ta’kidlaydi (9,-C.5). Shunday qilib, ijtimoiy-ma’naviy hayotda, xalq tafakkurida Siyovush afsonaviy shahar asoschisi sifatida yashab kelgan.

X-asrda Arkning g‘arbiy etagidagi registon hududi shimoliy-g‘arbiy tomondag'i Darvozai Ma’bad, ya’ni hozirgi Hazrati Imom darvozasigacha cho‘zilgan. Shu asrlarda Hazrati Imom darvozasi arab tarixchilari asarlarida Darvozai Ma’bad deb atalgan (2,-C.104). Keyinchalik Abu Hafs Kabir mozori atrofi va Hazrati Imom darvozasi ro‘parasi aholi turar joylari bilan gavjumlashib, XV-asrda bu yerda Xossa Po‘lot guzari shakllangan (10,-C.52). Keyingi asrlarda, ayniqsa, XVI- asrdan so‘ng Hazrati Imom darvozasi tomon cho‘zilgan hududda turar joy va guzarlar shakllanishda davom etib, registon janubiy-g‘arbiy tomonga qarab kengayib, hozirgiga yaqin ko‘rinishni olgan. Olib borilgan tadqiqotlar yangi guzarlar shakllanishi kelgusi asrlarda ham davom etganligini ko‘rsatadi. Sharqshunos olima O.A.Suxareva XVI asrgacha Buxoro shahri shimolida joylashgan Abu Hafs Kabir ziyoratgohi jamiyat ma’naviy hayotidagi muhim ziyorat obyekti sifatida mashhur bo‘lganligini ta’kidlaydi (14,-C.78).

XVI asrdan keyin, xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Abu Hafs Kabir ziyoratgohi atrofida Nazarcha, Xossa Po‘lod, Qozi Mir Hoshim guzarlari paydo bo‘lgan (15,-C.104). Shu tariqa ziyoratgoh aholi ijtimoiy-ma’naviy hayoti, shahar arxitekturasining bir

qismiga aylangan.

Ismoil Somoniy maqbarasi va unga yaqin hududlar XVI asrdan so‘ng shahar hududiga qo‘sib olingen. Ko‘hna moziyda Naukand nomi bilan atalgan bu hududda XVIII asr boshlarida aholi turar joy va manzillari shakllanib borgan (5,-C.221-237). Demak, shaharning shimoliy-g‘arbiy qismi kengayishida bu ziyyaratgoh muhim o‘rin tutgan.

O‘z davrida atrofi yirik qabriston bilan o‘ralgan Chashmai Ayyub ziyyaratgohi eski shahar qal’asi devoridan tashqarida bo‘lib, shaharning g‘arbidagi Shergiron darvozasidan shimoliy-sharq, O‘g‘lon darvozasidan janubiy tomonda joylashgan. Chashmai Ayyub mozorlari guruhi esa Chashmai Ayyub maqbarasi, Zinda Fil Ahmadi Jomiy maqbarasi, Shar‘obod mozori kirgan (1,-C.78-80). Asrlar davomida mazkur ziyyaratgohlar atrofi aholi bilan gavjumlashib, bu yerda Xo‘ja G‘unjoriy, Havzi Cho‘bin, Qalmoq kabi guzarlar paydo bo‘lgan (15,-C.125,127,128). Tarixiy xaritalarda mazkur ziyyaratgohlar atrofida shakllangan yangi guzarlar XVI asrda shaharga qo‘sib olingenligi aks etgan.

Shayx Jalol darvozasi shayboniy sulton Abdulazizzon ibn Ubaydulloxon (1540-1549) davrida qurilgan. Sulton Abdulazizzon Shayx Jalolning muridi bo‘lgan. Hazrat Shayx Jalol 1548- yilda 70-yoshida vafot etgan. Uning qabri Buxoro shahridagi Mirakon kvartalida joylashgan (7,-C.20).

Shayboniy sulton Ubaydulloxonning shayxga ixlosi baland bo‘lib, Shayx Jalol hukmdorning piri murshidi bo‘lgan.

Shuningdek, ashtarkoni hukmdor Abdulazizzon (1645-1680) Shayx Jalol qabri ustiga maqbara tiklagan (13,-C.216). Bu ma‘lumotlar hukmdor Abdulazizzonning shayxga o‘zgacha hurmat va e‘zozda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Shayx Jalol darvozasi yaqinida Abdulazizzon tomonidan ustoz sharafiga xonaqo ham bino qilingan. Buxoro yarim mustamlaka bo‘lgan yillarda xonaqoh qarovsizlik natijasida batamom xaroba holga kelgan, rus ma’murlari 1803-1894- yillarda bu ajoyib arxitektura yodgorligini yiqitib, uning g‘ishtlaridan shayx Jalol darvozasi yonida pochta, telegraf, viloyat kasalxonasi kabi binolarni qurishda foydalanishgan (6,-C.270). Demak, darvoza yaqinidagi Shayx Jalol ziyyaratgohi ham shu davrda buzib tashlangan.

1954-yillarda Shayx Jalol darvozasi davlat tomonidan ta’mirlangan (4,-C.49). Shayx Jalol darvozasi va shu nomdagisi mozor bugungi kunda saqlanmagan, ammo Shayx Jalol darvozasi yaqinidagi shu nomdagisi ziyyaratgoh Sohibzoda va Mirakon guzarlari tashkil topishida muhim omil bo‘gan. Aholi gavjumlashishi natijasida Shayx Jalol guzariga qo‘sni hududlarda shaharning janubiy-g‘arbiy qismida Sohibzoda, Mirakon va Xo‘ja Chorshanba guzarlari shakllanib borgan.

Sohibzoda guzari XIX asrda shaharning janubiy qismida Shayx Jalol darvozasi yaqinidagi hududda tashkil topgan. Har bir guzarda bo‘lgani kabi bu yerda ham masjid, tahiratxona, maktab va hovuz bo‘lgan (15,-C.100). Shoh Arab nomidagi qabriston yaqinida joylashgan guzar nomi bilan ataladigan ziyyaratgohda ko‘h toshlari bo‘lgan (15,-C.100). Buxoro shahrining janubiy-g‘arbiy qismidagi bu guzar o‘rnida ayni paytda jamoat binolari qad rostlagan. Guzar tarixiy qiyofasidan uzoqlashib, zamonaviy ko‘rinishga kirgan. Sohibzoda ziyyaratgohi saqlanib qolmagan.

Shaharning janubidagi Turki Jandi mavzesi, Kosagaron kvartaliga qarashli Mirakon guzari ham Sohibzoda guzariga qo‘sni (shimolida) bo‘lib, u XVI asrdan keyin Buxoro devori ko‘chirigach shaharning janubiy kengaygan hududida shakllangan. Mazkur kvartal Shayx Jalol darvozasiga yaqinligi sababli Guzari Shayx Jalol deb yuritilib, bu yerda shu nomli madrasa va masjid ham bo‘lgan (13,-C.217).

Manbashunos olma O.D.Chexovichning so‘zlariga qaraganda Mirakon masjidi va madrasasi 1607-1608- yillarda qurilib, kvartali shakllangan paytda guzar Kalta Manor deb atalgan (15,-C.99). Demak, Sohibzoda va Mirakon guzarlari Shayx Jalol darvozasi qurilgandan keyin tashkil topgan. Shayx Jalol darvozasining qurilishi bu guzarlarning tashkil

topishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ammo XX asr o'rtalarida amalga oshirilgan topografik o'zgarishlar Shayx Jalol mahallasiga tutash Sohibzoda, Mirakon, Xo'ja Chahorshanbe kabi ko'chalarga ham ta'sir qilmay qolmadi (16,-C.140-143). O'z davrida me'moriy imoratlari bilan shahar tarixiy qiyofasining bir qismiga aylangan tarixiy Shayx Jalol mahallasi o'rnida bugungi kunda tibbiyat muassasasi, ayollar maslahat Kengashi hamda viloyat kasalxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Shahar relyefidan ma'lum bo'lishicha, XVI asrda shaharning aholi gavjum guzarlari orasida joylashgan Turki Jandi guzari qismi deyarli kengaymagan, uning atrofi yirik qabristonga aylanib borgan.

Shahriston janubidagi Turki Jandi qabristonida esa qabrular bir-birining ustiga ustma-ust qo'yilganligi oqibatida baland pushtalar vujudga kelgan (8,-C.38-39). Turki Jandi shahardagi muhim ziyoratgoh sanalib, hozirgi kunda Buxoro shahrida shu nomdagi ko'chada joylashgan.

Haqiqatan ham yuqorida nomi keltirilgan qabriston o'z davrida shahardagi eng yirik qabriston bo'lganligini Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 13,15,17-xonadonlarning orqa devorida qolgan sag'ana qoldiqlari dalolat etib turibdi. Devorga tutashgan sag'analarning bo'yi juda baland bo'lib, ular 3-4 metrdan iborat qavat hosil qilgan.

Sobiq Ittifoq davrida Turki Jandi maqbarasi va qabristoni qarovsiz holda qoldirilgan, uning shimoliy tarafida ovchilik buyumlari sotiladigan magazin faoliyat olib borgan (20). Maqbaraning g'arbiy tomoni old fasad qismidan yo'l o'tgan. Mazkur yo'ldan so'ng Buxoro shahri Hamid Olimjon ko'chasi joylashgan. Sobiq Ittifoq davrida mazkur ko'chaning taxminan 15, 17, 19-uylarining o'rnida maqbaraga tegishli tahoratxona bo'lgan (20).

Qabristonning shimoliy qismi 2017-yilda tekislanib (20), ayni paytda uch qavatli bolalar bog'chasi qurilmoqda. Bugungi kunda faqatgina maqbara saqlangan, yirik qabriston o'rnida aholi turar joylari qad rostlagan.

So'nggi o'rta asrlarda ham guzarlar shakllanishda davom etgan. Shaharning Qarshi, Mozor va Samarqand darvozalari oralig'ida qal'a devori bo'ylab Qozi Nuriddin, Imom Qozixon, Qorakamol, Mir Taxuri devon va boshqa guzarlar joylashgan (16,-C.140-143).

Shaharning shimoliy-g'arbiy tomonidagi Imom va O'g'lon darvozalari orasida Xossa Po'lod, Nazarcha, Kofar-rabod, Xo'ja Qurbon, Qozi Mir Hoshim, Askarbiy kabi aholi yashash manzillari shakllanib borgan (16,- C.140-143).

Buxoro shahrining g'arbiy tomonida Talipoch darvozasi yaqinida Somoniylar maqbarasi, O'g'lon darvozasi hududida Safforiy imomlari mozori, Shergiron darvozasi hududida G'unjor al-Hofiz mozori, Chashmai Ayyub mozori, Qorako'l darvozasi shimoliy tarafida Ismoilim imomlarining mozori, Jo'ybor xo'jalari mozori, Solori Haj mozori bo'lgan.

Bu hududlarda keyinchalik Muddao, Havzi baland, Ahmadi Jom, Qobul-ota, O'zbek xo'ja, Takiya, Ahmad dodxo, Xo'ja G'unjori, Qalmoqon, Charmgaron, Dastorbandon, Janafaron, Shahri nav kabi guzarlar vujudga kelgan (16,- C.140-143).

Guzarlarning barpo qilinishidan tashqari ularning nomlanishida ham muqaddas qadamjo bilan bog'liq jihatlar mavjud. Jumladan, taniqli shayx, avliyo, pir, eshon va valiyalar yashab faoliyat ko'rsatgan guzarlar, ba'zan ularning nomlari bilan atalgan. Shuning uchun tarixiy manbalarda guzar nomlari o'zgarib turgan holatlar ko'p uchraydi. Ayrim hollarda guzarning haqiqiy nomi qolib, guzar shu yerda yashab o'tgan mashhur tariqat piri nomi bilan yuritilgan.Jumladan, Buxoro shahrida XX asr boshlarida Xo'ja Bulg'or, Imom Qozixon, Eshoni Pir, Jafar Xo'ja, Mavlono Sharif, Maxdumi A'zam, Boboyi Nonkash, Xo'ja Halim, Shayx Rangrez, Xo'ja Avliyoyi G'arib, Shayx Jalol, Xonaqohi Jo'ybor, Xalifa Xudoydod, Eshoni Imlo, Zinda Fil Ahmadi Jomiy, Chashmai Ayyub, Podshohi Ismoil Somoniylar, Shermuhammad juvozkash, Xo'ja Kalon, Shox Aksi,Turki Jandi kabi guzarlar tariqat vakili, mutasavvif, avliyolar nomi bilan atalgan (18,-C.1-2).

Xulosa qilib aytganda, yuqorida nomlari qayd qilingan mozorlar dastlab mashhur shaxs, mutasavvif, ilohiyotchi olimlarning qabrlaridan iborat bo'lib, keyinchalik ularning atrofi yangi qabrlar hisobiga kengayib boravergan. Bunday jarayonni diniy e'tiqodning jamiyat ma'naviy-maishiy hayatiga chuqur kirib borishi bilan izohlash mumkin. Oddiy xalq marhumning avliyolar yonida dafn qilinishini narigi dunyo azoblariga kafolat deb tushungan. Bunday qabristonlarni shahar ichkarisida ham, tashqarisida ham uchratish mumkin. Qabristonlar atrofi bo'yab bosqichma-bosqich aholi yashash manzillari vujudga kela boshlagan. Ijtimoiy hayat davom etib, aholi gavjumlashib yangi-yangi guzarlar, mahalla va mavzelar shakllanib borgan. Demak, muqaddas qadamjolar shahar topografiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanib, uning hududi kengayishiga o'z ta'sini o'tkazgan.

## ADABIYOTLAR

1. Ахмад ибн Маҳмуд Бухорий. Муин ул-Фуқаро.2019.Тарихи Муллоzода дар зикри мазороти Бухоро / Сўз боши, форс тилидан таржима, изоҳлар муаллифлари К.Рахимов. – Тошкент: Фан,-216с.
2. Бартольд В.В. 1963. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука,-149 с.
3. Бартольд В.В. 1964.Улугбек и его время.Соч.,т. 2, ч.2. – Москва:Наука,-174с.
4. Бухоро ВДА, 837-фонд, 1-рўйхат, 3-йиғма жилд, 49-вараг.
5. Мирзааҳмедов Д.К. 1984. К изучению исторической топографии Бухары района мавзолея Саманидов // ИМКУ. Выпуск.– Ташкент:Фан,-230с.
6. Мирзо Салимбек. 2003. Кашқули Салимий. Таворихи муттақадимин ва мутгаахирин /Форс-тоҷик тилидан доцент Н. Йўлдошев ўтирган. – Бухоро:Бухоро,-342б.
7. Муҳаммад Насириддин Ал-Ханафи Ал-Ҳасани Ал-Бухари. 2003.Туҳфат аз-зайрин (Бухарская часть) / Перевод с таджикско-персидского, предисловие и комментарий Х.Тураева.–Ташкент:Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAC),-50с.
8. Некрасова Е. Г. 2008. Некрополь Турки Джанди в Бухаре (материалы по исторической, топографии, архитектуре и археологии) // Из истории культурного наследия Бухары.– Вып.11. –Бухара: Бухоро,-С.38-39
9. Рахимов Р.Р. 2009. Центральная Азия: Ислам у семейного очага // Центральная Азия традиция в условиях перемен. –СПб.:МАЭ РА, Выпуск II.-С.5.
10. Рахматова С., Қурбонов Ҳ. 1995. Бухоро гузарлари тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Бухоро,-95б.
11. Сайид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. 2009.Таҳқиқоти Арки Бухоро / форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва кўрсаткичлар F.Каримовники.– Тошкент:Тафаккур,-153б.
12. Сайджонов Мусо. 2005.Бухоро шахри ва унинг эски бинолари / Перевод, предисловие, комментарии Х. Тураева.– Ташкент: Французский институт исследований Центральной Азии (IFEAC),-58б.
13. Садриддин Салим Бухорий. 2012.Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. –Бухоро : Дурдана,-350б.
14. Сухарева О.А. 1966.Бухара XIX-начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). – Москва: Наука,-332с.
15. Сухарева О.А. 1976.Квартальная община позднефеодального города Бухары.– Москва:Изд-во Наука главная редакция восточной литературы,-370с.
16. Тўраев Ҳ. 2016.К исторической топографии Бухары // “XIX аср охири - XX аср бошларида Бухоро” мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро.-Б.140-143.

17. ЎзМА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 23 - йиғма жилд, 8-варак ,
18. ЎзМА, И-126-фонд, 1-рўйхат, 73-йиғма жилд, 1-2 вараклар.
19. Ўзбекистон обидаларидағи битиклар. 2016. Бухоро (биринчи қисм). – Тошкент:Uzbekistan Today,
20. Buxoro shahrida yashovchi 56 yoshli Sobirov Sayfullo xotiralari. 2.10.2022.
21. Olimovna, J.N. (2020). Muqaddas ziyyaratgohlar Buxoro shahri topografiyasining tarkibi sifatida. Imom Buxoriy saboqlari, 1(1), 40-41.
22. Olimovna, J.N. (2019). Buxoro shahri tarixiy topografiyasining shakllanishida muqaddas ziyyaratgohlarning o'rni. Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi– 3/2019. Pages. 41, 44.
23. Olimovna, J. N. (2019). Buxoro shahri tarixiy qiyofasining shakllanishida mozorlarning o'rni. BuxDU ilmiy axborotnomasi, 239-243.

